



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



No 9
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariysi. Pedagogik ta'lomitlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariysi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariysi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariysi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariysi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariysi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 158 sahifa,
2-sentyabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lifi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulسانам Нематовна – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiiev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'idoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lif universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor

Gafurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)

Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston

Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Panjayev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'lifi boshqarmasi boshlig'inining birinchi o'rinnbosari

Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulسانам Нематовна – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda

Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

"Maktabgacha va matab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oly attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiysi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiysi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va matab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №136361

MUNDARIJA

Maktabgacha ta'lim tashkiloti innovatsion faoliyatini rivojlantirish jarayoni.....	14
Ibragimova Gulsanam Nematovna	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim metodikasida qo'llanilishi va o'qituvchi kompetentligiga ta'siri	22
Abduyev Sheroz	
Boshlang'ich ta'limda "tabiatshunoslik" fanini raqamli platformalar orqali o'qitish metodikasini takomillashtirish: 5e modeli asosida dizayn, baholash va joriy etish.....	25
Ahmadaliyev Shohruh Bahromjon o'g'li	
Ingliz va rus leksikografiyasida o'zbek milliy taom nomlarining lingvistik tahlili	30
Bobojonova Zarina Rashidovna	
Rahbarlarda til bilish darajasi va hissiy intellekt (eq): o'zaro bog'liqlikni o'rganish	34
Isaqllova Baxtigul Xo'jamovna	
Frazeologizmlarni o'rgatishda matn asosida integratsiyalashgan dars modeli: xorijiy til o'rganuvchilar tajribasi	38
Jumayeva Sadbarg Mirolimovna	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limi tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari: rivojlangan davlatlar tajribasi tahlili	42
Karimova Moxichehra Rixsibayeva	
Rus va ingliz tillarida sharqona realiyalarning leksik-semantik tasnifi	46
Kulmamatova Aziza Do'stmamat qizi	
TRIZ metodikasi asosida texnokratik bolalar bilan ishlash tizimini takomillashtirish	50
Orifjonova Mavludaxon Abduqaxxon qizi	
Raqamli ta'lim muhitida pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish.....	53
Raximberanova Munojat Muzaffar qizi	
Structure of Social Conflict and Stages of its Development	57
Zaynutdinova Shahnova Yuldashevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini baholash va rag'batlanirish tizimini takomillashtirish.....	60
Abduraxmonova Nigoraxon Akramali qizi	
Expression of National Mental Characteristics in the Uzbek Lullaby.....	64
Alimbayeva Shaxlo Tursunovna	
Bo'lajak "texnologiya" fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetentlikni rivojlantirish tizimining pedagogik zarurati	69
Avazov G'oyibnazar Berdiyevich	
Bo'lajak tarbiyachilarda integratsiyalashgan ta'lim faoliyatini rivojlantirish orqali kommunikativ salohiyatini shakllantirish	72
Baratova Yulduz Asadullayevna	
Umumta'lim maktablarida molekulyar fizikani o'qitishning hozirgi holati	76
Boymirov Sherzod Tuxtayevich, Xudoinazarova Visola Musurmonqul qizi	
Ingliz tilini o'qitishda talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini akt vositasida rivojlantirish	80
Ergasheva Sevaraxon Ravshanjon qizi	
Maktabgacha ta'lim pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish istiqbollar.....	84
O'rinovala Feruzaxon O'ljayevna, Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi	
IIV litsey o'quvchilarining liderlik kompetensiyasini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari	90
Gadoyeva Dildora Baxtiyorovna	
Improving the System of Human Resource Capacity Management in Higher Education Institutions: Evidence from Uzbekistan	98
Imomov I., Umirova D.	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni mantiqiy va tanqidiy fikrleshsga o'rgatishning zamonaviy usullari.....	104
Iskandarova Munisa Bahodir qizi	
Tarbiyachi-pedagoglarning emotsional kompetentsiyasini rivojlantirish	107
Jovmirzayeva Nargiza Quvondiqovna	


Maktabgacha ta'lim yoshdagи giperaktiv bolalarga ta'lim berishning pedagogik-psixologik usullari.....	110
Jo'rayeva Nargiza Toirovna, Kamalova Sarvinoz	
Blum taksonomiyasи asosida ilmiy kompetentlikni takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	113
Mustafayeva Nilufar Ulashovna	
Maktabgacha yoshdagи ovoz buzulishiga ega bolalar bilan guruqli mashg'ulotlarni tashkil qilish	117
Umida O'tbasarova Mexmanovna, Maksudbekova Xovvajon Xamidbek qizi	
Bolalar jamoasida do'stona munosabatlarni shakllantirishda rivojlanish markazlarida loyiha asosida o'qitish texnologiyasidan foydalanish usullari	121
Quronova Ismigul Xolmurod qizi	
Kichik mакtab yoshidagi o'quvchilarda innovatsion metodlar orqali o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	126
Rustamova Davlatxon Toyirjon qizi	
Oliy ta'limda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning innovatsion modellari	131
Sanayeva Surayyo Bobonazarovna	
"Tibbiy radiologiya" fanini o'qitishda pedagogik muloqot orqali tanqidiy operativ muloqotni o'stirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	139
Shukurova Sevara Ilhomovna	
Improving High Jump Techniques	143
Tajimbetov Anvar Tengelbayevich	
Filologik va ijtimoiy-siyosiy fanlarda ta'lim jarayonining innovatsion metodlari.....	146
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna	
Понятие логического мышления и его особенности у младших школьников.....	149
Ахмаджонова Нозима Нодиржон қизи	
Интеграция психологии, обучения английскому языку, дошкольного образования и туризма: междисциплинарная модель формирующего опыта	152
Омонуллаева Дилофузা Асадулла қизи	

МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ PEDAGOGLARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI



O'rinova Feruzaxon O'ljayevna

"Maktabgacha ta'lism" kafedrasi professori v.b.,
p.f.n.



Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi

Farg'ona davlat universiteti

ORCID: 0000-0002-5897-4372

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lism tashkilotlarida pedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirishning ahamiyati va assosiy omillari tahlil qilingan. Maktabgacha ta'lism tashkilotining samarali faoliyati tarbiyachilarining kasbiy malakasi va kompetentligiga bevosita bog'liqdir. Maqolada pedagoglarning kompetentligini rivojlantirishda o'quv dasturlari, malaka oshirish, amaliyat va tajriba almashish, pedagogik nazorat hamda psixologik qo'llab-quvvatlash kabi omillar keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lism, kompetensiya, kasbiy kompetensiya, kasbiy malaka, kommunikativ kompetensiya, shaxsiy kompetensiya, kreativ kompetensiya, maxsus kompetensiya.

Abstract: This article analyzes the importance and key factors in developing professional competence among preschool educators. The effective functioning of preschool institutions is directly linked to the professional qualifications and competencies of teachers. The study highlights essential factors in shaping educators' competence, including educational programs, professional development, practice and experience sharing, pedagogical supervision, and psychological support.

Key words: preschool education, competence, professional competence, professional qualification, communicative competence, personal competence, creative competence, special competence.

Аннотация: В данной статье проанализировано значение и основные факторы формирования профессиональной компетентности педагогов в дошкольных образовательных организациях. Эффективная деятельность дошкольного учреждения напрямую зависит от профессиональной квалификации и компетентности воспитателей. В статье подробно рассматриваются такие факторы формирования компетентности педагогов, как образовательные программы, повышение квалификации, практика и обмен опытом, педагогический контроль, а также психологическая поддержка.

Ключевые слова: дошкольное образование, компетенция, профессиональная компетенция, профессиональная квалификация, коммуникативная компетенция, личностная компетенция, креативная компетенция, специальная компетенция.



KIRISH

O'zbekiston Respublikasi ta'lrim tizimida amalga oshirilayotgan yangilanishlar, o'zgarishlar va innovatsion tashabbuslar pedagoglarning malakasini oshirishni talab etadi. Maktabgacha ta'lrim tiziminining islohoti pedagoglarning o'ziga xos kasbiy va shaxsiy kompetentligini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Xususan, pedagogik innovatsiyalar, yangi o'quv dasturlari va metodikalar ta'lrim jarayoniga joriy etilishi bilan birga, pedagoglarning amaliyotga tayyorligi va ta'lrim sifatini oshirishni taqozo etadi.

Bundan tashqari, global miqyosda ta'lrim tizimidagi o'zgarishlar hamda xalqaro standartlarga moslashuv zarurati pedagoglarni doimiy ravishda o'z bilim va ko'nikmalarini yangilab borishga undaydi. Pedagoglarning kasbiy kompetentligi, zamonaiviy pedagogik usullarni amaliyotda qo'llay olish qobiliyati nafaqat ta'lrim jarayonining samaradorligini oshirish, balki tarbiyalanuvchilarning shaxsiy rivojlanishini ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta'lrimning rivojlanishi va sifatli ta'lrim berilishi pedagoglarning kasbiy kompetentligiga bevosita bog'liqdir. Ushbu ta'lrim turi bolalarning hayotdagi ilk qadamlarini tashlashida, ularning dunyoqarashi, axloqiy qadriyatlar, ijodiy hamda aqliy rivojlanishini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, maktabgacha ta'lrim tashkilotlarda pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalasi bugungi kunda alohida dolzarb ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ko'plab pedagog olimlar o'zlarining tadqiqot ishlarida kompetentlikni pedagogik nuqtai nazardan yanada kengroq sinchiklab o'rganish imkonini beradigan turli jihatlarini va tarkibiy qismlarini ajratib olgan hamda o'rganib chiqqanlar.

S.E. Shishov tomonidan kompetentlikning quyidagi ta'riflari keltirilgan:

– O'qish-o'rganish tufayli egallangan bilimlar, tajriba, qadriyatlar va moyilliklarga asoslangan umumiy layoqatilik; bilim va vaziyatlar o'rtasidagi aloqani o'rnata bilish qobiliyati, muammoga mos keladigan hal etish yo'llini topish. (Kompetentlik deb aytish uchun u biror vaziyatda namoyon etiladigan taqdirdagina joiz bo'ladi. Namoyon etilmagan kompetentlik – kompetentlik emas, yashirin imkoniyatlar bo'lib qolsa ham katta gap).

V.V. Bashevning fikricha, kompetentliklar – insonning individual qobiliyati bo'lib, ular shart-sharoitlar o'zgargan paytda ushbu qobiliyatning boshqa shart-sharoitlarga ko'cha olishida namoyon bo'ladi.

N.G. Vigotkovskiyning fikriga ko'ra, kompetentlik – qo'yilgan muammolarni hal etishga qaratilgan insonning ichki (bilim, ko'nikma va malakalari, ma'naviy sifatlari, psixologik xususiyatlari) va tashqi (moddiy-texnik, ijtimoiy) imkoniyatlarini safarbar qila olish qobiliyatidir.

V. Andreyevning ta'kidlashicha, kompetensiya – bu ma'lum o'quv, kasbiy va boshqa kompleks masalalarni yechishda namoyon bo'luvchi, rivojlanib boruvchi integral ko'rsatkich bo'lib, shaxsning (ijobiy motivatsiya, ilm, mahorat, iqtidor va ijodiy faoliyat tajribasini o'z ichiga oluvchi) tayyorgarlik darajasidir¹.

Shu o'rinda "kasbiy kompetentlik" tushunchasiga Gaynazarova Gulbahor Abdullayevnaning mualliflik ta'rifini keltiramiz: kasbiy kompetentlik – pedagogik vaziyatlarda o'z bilim, ko'nikma va malakalarini oqilona qo'llash, pedagogik muammolarni hal etishda tarbiyalanuvchilarga ta'sir ko'rsatish usul va uslublari hamda vositalaridan mohirona foydalana olish imkonini beruvchi kasbiy fazilatlar majmuidir².

M.N. Xushnazarovaning fikricha, tarbiyachining kasbiy kompetensiyasi – bu o'zining kasbiy mahoratini rivojlantirishga intilladigan, "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida o'quv-tarbiyaviy faoliyatni samarali tashkil etadigan va davlat dasturi asosida o'zining variativ dasturlarini yarata oladigan, tarbiyalanuvchilarni muktabga sifatli tayyorlaydigan, ta'lrim tizimidagi islohotlarga mas'uliyat bilan yondashib o'rganadigan hamda uni amaliyotda qo'llay oladigan, mustaqil fikrini bayon eta oladigan shaxsdir³.

M. Umaraliyevanining fikricha, kompetensiya – bu o'zining kasbiy mahoratini mukammal rivojlantirgan, dars jarayonini nafaqat loyihalashtiradan, balki uni boshqara oladigan, ta'lrim islohotlarini, zamon talablarini, innovatsiyalarni tez ilg'ab, ularni dars jarayonida samarali qo'llay olishdir⁴.

M. Xushnazarovaning fikricha, kompetentlik – insonning mavjud bilim va hayotiy tajribalariga tayangan holda ma'lum bir muammoni hal etishga doir qobiliyatidir, degan xulosaga kelish mumkin. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, kompetentlik tushunchasiga berilgan aksariyat ta'riflar va ilg'or qarashlar kasbiy ta'lrim hamda kasbiy faoliyat bilan bog'liq holda bayon etilgan⁵.

1 <http://hozir.org/umumiyy-kompetentlik.html?page=4>

2 Gaynazarova G.A. Malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta'lrim tashkilotlari tarbiyachilarini kasbiy kompetentligini rivojlantirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). ... diss. avt.– NAMANGAN., 2022. – 12-b.

3 Xushnazarova M.N. Maktabgacha ta'lrim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). ... diss. avt.– T., 2021. – 12-b.

4 Umaraliyeva M.A. Umumiyy o'ta ta'lrim muassasalarini o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). ... diss. avt.– T., 2020. – 10-b.

5 Xushnazarova M.N. Maktabgacha ta'lrim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). ... diss. avt.– T., 2021. – 12-b.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda 18 nafar pedagog xodim ishtirok etdi. Metodologik yondashuv sifatida sifat (qualitative) va miqdoriy (quantitative) tadqiqot metodlari uyg'unlashtirilgan. Bu yondashuv pedagoglarning kasbiy kompetentligini chuqur o'rganish va real holatni aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqot usullari:

1. So'rovnama (anketali tadqiqot):

Maxsus ishlab chiqilgan so'rovnama 18 nafar pedagogga tarqatildi. Unda kasbiy bilimlar, innovatsion metodik yondashuvlar, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish, jamoaviy ishlash, bolalar bilan muloqot ko'nikmalari kabi kompetentlik mezonlariga oid 20 ta yopiq va ochiq turdag'i savollar bo'ldi. So'rovnama savolari quyidagi kompetentlik sohalarini qamrab oldi:

- Metodik bilimlar (mashg'ulot rejasini tuzish, didaktik vositalar tanlash)
- Muammoli vaziyatlarda yechim topish
- Bolalar bilan psixologik muloqot
- Innovatsion texnologiyalardan foydalanish

Savollar yopiq (variantli) va ochiq (fikr bayon qilish) turlarda bo'ldi. Pedagoglarning tomonidan yuborilgan ma'lumotlar grafik va foizlar ko'rinishida tahlil qilindi. Bundan tashqari, ochiq javoblar kontent-tahlil orqali kodlandi va eng ko'p takrorlangan muammolar aniqlandi.

2. Kuzatuv (naturalistik kuzatuv):

Pedagoglarning amaliy mashg'ulot jarayonidagi faoliyati kuzatildi. Har bir pedagogning bolalar bilan ishlash uslubi, individual yondashuvi, dars jarayonidagi faol ishtiroki maxsus kuzatuv varaqalari asosida baholandi. Kuzatuv usulini olib borishdan maqsad pedagoglarning amaliyotda o'z kompetensiyalarini qanday namoyon qilayotganini real sharoitda baholash edi.

Tadqiqot davomida maktabgacha ta'limga tashkiloti pedagoglarda kuzatuvlar olib borildi. Har bir pedagogning bolalar bilan ishlashi, dars jarayonini tashkil etishi va kommunikativ yondashuvi baholandi. Kuzatuvlar maxsus ishlab chiqilgan "Pedagogik faoliyatni kuzatish varaqasi" asosida olib borildi. Varaqada 5 ta asosiy mezon mavjud edi:

- Mashg'ulot rejasining mavjudligi va unga rivoja qilinishi
- Bolalarga individual yondashuv darajasi
- O'quv metodlarining xilma-xilligi
- Didaktik vositalardan foydalanish sifati
- Bolalar bilan samarali muloqot

Kuzatuv natijalari sifat tahlili asosida umumlashtirildi va pedagoglarning kesimida o'rganildi.

3. Test sinovlari:

Pedagoglarning nazariy bilim va kasbiy tayyorgarlik darajasini aniqlash maqsadida test sinovlari o'tkazildi. Tadqiqot davomida 25 ta yopiq test savoldidan iborat sinov varaqasi yaratildi. Testlar maktabgacha ta'limga tashkilotida belgilangan tartib asosida o'tkazildi. Har bir ishtirokchi uchun alohida javob varaqasi bo'lib, 30 daqiqa vaqt ajratildi. Javoblar maxsus kalit asosida tekshirilib, har bir pedagogning bilim darajasi foizda ifodalandi.

4. Amaliy seminar-treninglar:

Tadqiqot davomida pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan seminar-trening tashkil etildi. Bundan maqsad pedagoglarning zamonaviy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish edi.

Treninglarda quyidagi metodlar qo'llanildi:

- Guruhiy muhokama va muammoli vaziyatlar
- Rol o'ynash texnikasi va taqdimotlar
- Test va refleksiya mashg'ulotlari

Treningdan oldin va keyin qisqa testlar orqali bilim o'zgarishi tahlil qilindi. Ba'zi pedagoglar tomonidan ixtiyoriy ravishda videodarslar yaratilib, ular umumiy tahlil uchun taqdim etildi. Treningda faol ishtirok etgan pedagoglar kompetentlik baholash testlarida ijobiy o'sishni ko'rsatdi.

5. O'z-o'zini baholash (self-assessment):

Har bir pedagogga kasbiy kompetentligiga oid o'z-o'zini baholash formasi taqdim etildi. Bu usulning maqsadi pedagoglarning o'z kasbiy holati haqidagi subyektiv qarashlarini aniqlash edi. O'z-o'zini baholash uchun "Kasbiy kompetentlikni baholash formasi" tarqatildi. Formada har bir kompetentlik turi bo'yicha 1 dan 5 gacha ball qo'yilishi so'raldi. Asosiy baholovchi yo'nalishlar quyidagilar edi:

- Kommunikativ kompetentlik
- Innovatsion yondashuvga tayyorlik
- Kasbiy rivojlanishga ochiqlik
- Metodik faoliik

Toplangan ma'lumotlar real kuzatuv va test natijalari bilan solishtirildi. Natijalarda ko'rinishicha, ba'zi pedagoglar o'zini past baholagan bo'lsa, ba'zilarida real baholardan yuqori natijalar aniqlandi. Bu tafovutlar asosida metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Tajriba-sinov ishlarini tashkil etishdan ko'zlangan maqsad: maktabgacha ta'lif tashkiloti pedagog-tarbiyachilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish va tavsiya etilgan pedagogik shart-sharoitlardan samarali foydalanish darajasini aniqlashdan iborat etib belgilandi. Tajriba-sinov ishlariga jami 18 nafar pedagog-tarbiyachilar jalb etildi. Tadqiqot jarayonida maktabgacha ta'lif tashkiloti pedagog-tarbiyachilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish darjasini va unga ta'sir qiluvchi omillar o'rganildi. Tadqiqot jarayonida tashkilotning pedagogik jamoalari bilan suhbatlar olib borildi va anketa so'rovnomalari o'tkazildi.

Tadqiqot davomida pedagoglarning o'z-o'zini baholashi uchun "Kasbiy kompetentlikni baholash formasi" tarqatildi. Formada har bir kompetentlik turi bo'yicha 1 dan 5 gacha ball qo'yilishi so'raldi. Asosiy baholovchi yo'nalishlar:

- Kommunikativ kompetentlik
- Innovatsion yondashuvga tayyorlik
- Kasbiy rivojlanishga ochiqlik
- Metodik faoliik

Toplangan ma'lumotlar real kuzatuv va test natijalari bilan solishtirildi. Natijalarda ko'rinishicha, pedagoglarning 30 % i o'zini past baholagan bo'lsa, 70 % i yuqori natijalar ko'rsatdi. Bu tafovutlar asosida metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.



Tajriba-sinov ishlari natijasida olib borilgan umumiy ko'rsatkichlar

O'tkazilgan tadqiqotlar va tajriba-sinov ishlari asosida maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda qo'llanilgan metodlarning amaliy samarasini chuqur tahlil qilish imkoniyati yaratildi. Pedagogik faoliyatning samaradorligi bevosita o'qituvchining kasbiy bilim va ko'nkmalariga, o'z ustida ishslash salohiyatiga, shuningdek, ta'lim jarayoniga yangicha, innovatsion yondasha olish qobiliyatiga bog'liq.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog-tarbiyachilarining kompetentligini rivojlantirish uchun uzluksiz malaka oshirish tizimini yo'nga qo'yish, metodik va pedagogik kengashlarda ma'ruzalar bilan faol ishtirok etishlarini nazorat qilish, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini bilish va ulardan foydalanishlariga erishish, tarbiyachilarning o'z ustida ishslashlarini tashkil etish, axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalana olish ko'nikmasini oshirish, pedagogik texnologiya vositalarini muntazam takomillashtirish, turli tadbir, tanlov va loyihalarda ishtirok etishlarini ta'minlash, shaxsiy pedagogik tajribasini umumlashtirish uchun keng targ'ibot ishlari tashkil etish lozim. Tarbiyachida kasbiy kompetensiyani rivojlantirishda o'z-o'zini rivojlantirishi va o'z ustida ishlashi juda muhimdir.

Tarbiyachi muntazam takomillashtirilgan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturini amaliyotga joriy etishdagi muammo va yechimlarga qaratilgan o'quv seminarlari, master-klasslar, konferensiyalarda ishtirok etishi, tajribali tarbiyachilarning ochiq mashg'ulotlarini kuzatishi, kasbiy malakalarini yuqori cho'qqilarga olib chiqishi va o'zida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishi uchun keng imkoniyat yaratadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, yuqorida keltirilgan zamonaviy ta'lim texnologiyalari orqali faoliyatlarini tashkil etish yosh bolalarda intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish va ularni ilmiy-texnik ijodga jaib qilish uchun ta'lim vazifalarini amalga oshirishda kompleks yondashuvni ta'minlaydi. Tarbiyachi innovatsion faoliyatini tizimli tashkil etishi uchun yangilik yaratishi, uni o'z faoliyatida qo'llashdan cho'chimay, yangi bilimlarni o'zlashtirishi zarur. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachining innovatorlik salohiyatini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish lozim. Qulay sharoitda tarbiyachida yangi g'oyalalar, tizim yoki faoliyat yo'nalishini o'zgartirishga qaratilgan aniq maqsadlar, odatiy bo'limgan tashabbuslar, noan'anaviy yondashuvlar, ilg'or ish uslublari namoyon bo'lishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda tarbiyachilar uchun metodik tavsiyalar, interfaol ta'lim usullari, zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish, bolalar o'yini, o'yinchoqlar, ertaklar, she'rlar, maqollar, ajdodlarimizning ma'naviy merosidan namunalar tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Birinchi galda tarbiyachilarni turli xil metodlar vositasida faoliyatda va faoliyatdan tashqari vaqtarda, ta'lim berish hamda bola yoshiga mos bo'lgan o'ynlardan foydalanish, ajdodlarimiz o'gitlariдан foydalanish, she'rlarni yod oldirish, ertaklar va maqollardan faoliyat davomida o'z o'rnila foydalanish orqali kasbiy kompetentligi shakllanadi.

Pedagoglarning kasbiy mahorati, yangiliklarga intiluvchanligi va ijodkorligi ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanishi, xorij tajribalaridan andoza olgan holda ulardan unumli foydalanishi hamda faoliyat jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni tattbiq etishi yaxshi samara beradi. Shuningdek, ajdodlarimiz merosiga murojaat qilish orqali esa tarbiyalanuvchilarda axloq-odob me'yorlarini rivojlantirish, Vatanga bo'lgan mehr-muhabbatni, o'zaro do'stlik tuyg'ularini yanada mustahkamlash va sadoqatni shakllantirish kabi sifatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda, maktabgacha ta'lim tizimida kasbiy kompetentligini shakllantirish bo'yicha amalga oshirilgan tajriba va tahlillar bu borada kompleks yondashuvning muhimligini, metodik qo'llab-quvvatlash esa asosiy omillardan biri ekanligini tasdiqladi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun uzluksiz malaka oshirish tizimini yo'nga qo'yish, tarbiyachilarning o'z ustida ishslashlarini tashkil etish hamda metodik va pedagogik kengashlarda ma'ruzalar bilan faol ishtirok etishlarini nazorat qilish, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini bilish va ulardan foydalanish, pedagogik vositalar hamda ularni muntazam takomillashtirish darkor. Bundan tashqari, axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalana olish ko'nikmasini oshirish, turli tadbir, tanlov va loyihalarda ishtirok etishlarini ta'minlash, shuningdek, shaxsiy pedagogik tajribasini umumlashtirish va keng targ'ib qilish zarur.

Bo'lajak tarbiyachida kasbiy kompetentligini rivojlantirishda o'z ustida ishlashi va o'z-o'zini rivojlantirishi muhim hisoblanadi. Jumladan, bo'lajak tarbiyachi muntazam ravishda Davlat talablari va takomillashgan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturini amaliyotga joriy etishdagi muammo va yechimlarga qaratilgan o'quv seminarlari, master-klasslar, konferensiyalarda ishtirok etishi, tajribali tarbiyachilarning ochiq mashg'ulotlarini kuzatishi maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, tajriba-sinov ishida maktabgacha ta'lif tashkilotlari pedagoglarining kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayoni o'rganildi va uning samarali tashkil etilishi uchun zarur bo'lgan asosiy omillar aniqlandi. Kasbiy kompetentlik pedagoglarning bilim, ko'nikma va shaxsiy xususiyatlaridan iborat bo'lib, bu ularning pedagogik faoliyatda muvaffaqiyatlari bo'lishida muhim rol o'yynaydi.

Tadqiqot jarayonida pedagoglarning kasbiy malakalarini oshirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash va doimiy ta'liming ahamiyati ta'kidlandi. Tadqiqotda qo'llanilgan ilmiy-uslubiy yondashuvlar, jumladan, tahvil metod, so'rov nomasi va suhabat usuli, tajriba-metodik yondashuv pedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirishdagi mayjud holatni va unga ta'sir qiluvchi omillarni aniq tushunishga yordam berdi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydag'i "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi to'g'risida"gi PQ-4312-son qarori.: <https://lex.uz/ru/docs/-4327235>
2. Gaynazarova G.A. Malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta'lif tashkilotlari tarbiyachilarini kasbiy kompetentligini rivojlantirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Namangan, 2022. – 12-b.
3. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lif tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. Takomillashtirilgan ikkinchi nashr. – Toshkent, 2022.
4. Xushnazarova M.N. Maktabgacha ta'lif tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2021. – 12-b.
5. O'ljayevna O.F., Orifjonovna A.M. Maktabgacha ta'lif tarbiyachi pedagogining pedagogik faoliyatining o'ziga xosligi // Prospects and Main Trends in Modern Science. – 2024. – T. 2. – № 16. – S. 11–13.
6. O'ljayevna O.F., Orifjonovna A.M. Oliy ta'limda bo'lajak tarbiyachilarining intellektual kompetentligini rivojlantirish // Innovative Achievements in Science 2024. – 2024. – T. 3. – № 34. – S. 30–31.
7. O'ljayevna O.F. va boshq. Tarbiyachi pedagoglarda ijodkorlik sifatlarini rivojlantirish // Samarali ta'lif va barqaror innovatsiyalar jurnali. – 2024. – T. 2. – № 4. – S. 410–415.
8. O'ljayevna O.R.F. va boshq. Maktabgacha ta'lif tashkiloti boshqaruving o'ziga xos xususiyatlari // Pedagog. – 2024. – T. 7. – № 5. – S. 827–831.

- 13.00.00** Pedagogika fanlari
- 13.00.01** Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'lilotlar tarixi
- 13.00.02** Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03** Maxsus pedagogika
- 13.00.04** Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05** Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06** Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07** Ta'limda menejment
- 13.00.08** Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09** Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00** Tarix fanlari
- 19.00.00** Psixologiya fanlari
- 01.00.00** Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00** Kimyo fanlari
- 03.00.00** Biologiya fanlari
- 09.00.00** Falsafa fanlari
- 10.00.00** Filologiya fanlari
- 11.00.00** Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.